
MAHALLALARDA “YASHIL MAKON” LOYIHA KO‘LAMI VA QAMROVI TOBORA KENGAYMOQDA

Toshloq tumanidagi mahallalarda ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarini ko‘zda tutuvchi «Yashil makon» loyihasi doirasida ishlar qizg‘in davom etmoqda.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi asosida mahallalardagi bo‘sh joylarga, ko‘cha va hiyobonlarga mevali va manazarali daraxt hamda buta ko‘chatlari o‘tqazilmoqda. Aholi yashash manzillari yashil hududlarga aylantirilmoqda.

Jumladan, kuni-kecha “Chek”, “Xonariq” hamda “Kattako‘cha” mahallalarida ham mevali daraxt ko‘chatlari ekish bo‘yicha keng qamrovli tadbirlar tashkil etildi.

2023-11-13 15:50:09